

“IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA MILLIYLIK

Karimov Husniddin

*Farg‘ona davlat universiteti
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O’tkir Hoshimov adabiy merosida asosiy o‘rinlardan birini egallagan “Ikki eshik orasi” romanı haqida so‘z yuritiladi. Asarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligini yozuvchi yuksak mahorat bilan tasvirlagan. Tinchlikka rahna solgan urushning qoralangani, uning g‘ayriinsoniy mohiyatiga urg‘u berilgani, urush voqealarining har bir ota-onas qalbini jarohatlagani, ko‘ngillarga ozor yetkazgani romanning mohiyatini tashkil etadi. Yozuvchi yaratgan obrazlarining mardlik, matonat, insonparvarlik va sabr-qanoat fazilatlari orqali millatning ruhiy takomilini ochishga muvaffaq bo‘lgani haqida so‘z ketadi.*

Kalit so‘zlar: *insonparvarlik, ruhiy takomil, Qora amma, Robiya, Orif oqsoqol, Husan duma, obraz, milliy ruh, Umar zakunchi, Muzaffar, Munavvar*

Аннотация. В данной статье рассказывается о романе “Междудвух дверей”, который занимает одно из главных мест в литературном наследии Откира Гашимова. В произведении с высоким мастерством описываются судьбы людей и сложности человеческой жизни. Суть романа - осуждение войны, нарушившей мир, акцент на ее бесчеловечном характере, на том, что события каждого родителя. Говорят, что писателю удалось раскрыть духовное совершенствование нации через качества мужества, силы духа, человечесности и терпения.

Ключевые слова: *гуманизм, духовное развитие, Черная тетка, Рабия, Ариф старейшина, Хусан дума, образ, национальный дух, Умар Закунчи, Музффар Мунаввар*

Abstrakt. *This article talks about the novel “Between Two Doors”, which occupies one of the main places in the literary heritage of Otkir Hoshimov. In the work, the writer described the fate of people and the complexity of human life with great skill. The essence of the novel is the condemnation of the war that broke the peace, the emphasis on its inhuman nature, the fact that the events of the war hurt the hearts of every parent. It is said that the writer managed to reveal the spiritual improvement of the nation through the qualities of courage, fortitude, humanity and patience of the characters created by the writer.*

Key words: *humanitarianism, spiritual development, Black aunt, Rabia, Arif elder, Husan duma, image, national spirit, Umar Zakunchi, Muzaffar, Munavvar*

KIRISH

“Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi¹⁸”.

“Ikki eshik orasi” romanida voqealari Toshkent atrofidagi qishloqlardan birida, asosan, ikkinchi jahon urushi yillarida bo‘lib o‘tadi. Shu bilan birga, adib asarda o‘rnini-

¹⁸ Mirziyoyev Sh. [https://uza.uz](http://uza.uz)

o‘rnida qishloq kishilarining urushdan oldingi va urushdan keyingi hayotidan ham hayajonli lavhalar chizadi. Roman voqeasi Robiya, Qora amma, Kimsan Xusanov, Muzaffar Shomurodov, Munavvar Aliyeva, Ra’no, Umar zakunchi, Olimjon Komilov kabi turli xarakter va turli toifadagi obrazlar tilidan hikoya qilib beriladi. Bu hikoyalar mazmunan bir-biri bilan mahkam bog‘langan bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Shu tariqa ular romanning bir butun tugal va jozibador syujetini hosil qiladi. Asarda milliy ruh tushunchasi ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Ayniqsa, Qora amma obrazi orqali milliy ruh pafosi ko‘rsatib berilgan. Asarda sun’iylik yo‘q, aksincha ishontirish san’ati kuchli. Adib qaltis, murakkab masalalarni ham favqulodda topqirlik bilan ishonarli qilib tasvirlaydi.

“Ikki eshik orasi” romani personajlarga boyligi bilan kitobxonni o‘ziga jalb etadi. Ularning orasida Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib kabilar ajralib turadi. Muallif ayniqsa, Orif oqsoqol obrazini mukammal chizishga muvaffaq bo‘lgan. U xalq orasida katta obroga ega, eng og‘ir damlarda ham odamlarni qiyin ishlarga jalb qila oladi. U ko‘pgina o‘zbek qariyalari kabi tashabbuskor va donishmand. Ayni choqda haqiqatni qo‘rqmasdan aytishda cho‘chimaydigan shartaki, jasoratli odam. U odamlarni baholashda o‘z me’yoriga ega — odamning belida belbog‘i bo‘lishi kerak. Belbog‘ uning uchun mardlik, tantilik, odamiylik belgisi.

MUHOKAMA

Asarda Kimsan Husanovning ham obrazi muvaffaqiyatli chiqqan. U roman voqealarida kam ishtirok etgan obrazlardan bo‘lsa ham ikki bobdag‘i hikoyasi orqali uning tanti, mard, oriyatli, jasur—belida belbog‘i bor yigit ekanligini bilishimiz mumkin. U vatani uchun o‘zini qurban qiladi.

Romanda ayollar obraziga ham keng o‘rin berilgan. Ular ichida, ayniqsa, Qora amma obrazi ajralib turadi. Qora amma – mehribon, sodda, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazi orqali urush davridagi o‘zbek onalarining siymosi tasvirlangan. U boshidan o‘tkazgan barcha ko‘rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o‘zida yashashga kuch topadi. Qora amma olti farzandini yerga qo‘yib, bittagina Kimsanini yer-u ko‘kka ishonmasdan katta qildi. Yurda mudhish urush boshlangach, miq etmay, vatan tinchligi uchun yolg‘iz farzandi Kimsanini urushga kuzatadi. Biroq o‘g‘li urushdan qaytmaydi lekin mushtipar ona bu xabarga ishonmaydan hattoki, yillar o‘tsada unga aza ochmaydi. Ona... bu zotni ta’riflashga til ojizdir.

Romanda kelgan yana bir ayol obrazi bu – Robiya. Afsuski, unga ham taqdir kulib boqmadi. Yoshlik paytida onasidan erta yetim qoladi va otasi tarbiyasida ulg‘ayadi. Robiya juda aqli, matonatli, go‘zal bir qiz sifatida asarda gavdalaniadi. Yozuvchi Robiya obrazi orqali asarda o‘zbek ayoli timsolini tasvirlab beradi. Urush tugaganiga bir necha yil bo‘lsada, sevgilisi Kimsanni sadoqat bilan kutishda davom etadi. Ammo taqdirning gardishi bilan u o‘zining tutungan tog‘asiga turmushga chiqishga majbur bo‘ladi. Ra’nuning qilgan nomaql ishlari uchun Robiya jabr chekadi. U sabrli, mehribon, irodali o‘zbek ayoli sifatida barchaga namuna bo‘la oladi.

“Ikki eshik orasi” romani o‘zbek adabiyoti xazinasidan o‘z o‘rnini topgan asarlardan biri bo‘lib qoldi. Bu asar xalqlar boshiga kulfat solgan ikkinchi jahon urushi to‘g‘risida yozilgan achchiq va alamlı yilnomadir¹⁹”.

XULOSA

Asarda urush va urushdan keying yillardagi qishloq hayoti, urushning jamiki og‘irliliklarini, o‘z yelkasida ko‘targan, o‘zi yemay barchasini jangchilar og‘ziga tutgan fidoyi dehqonlar jasorati madh qilingan. Nikoh kechasini ertasigayoq kuyovini jangga jo‘natib, o‘zлari kelinlik liboslarini ish kiyimiga almashtirib og‘ir va mashaqqatli mehnatlari, ota o‘rniga ketmon ko‘tarib dalaga chiqqan go‘daklar, o‘g‘li o‘rniga yer chopgan chol-u kampirlar ko‘z o‘ngingizda paydo bo‘ladi. Siz ularning ovozini eshitasiz. Urush yillarida chol-kampirlar ko‘zлari nigoron bo‘lib jigargo‘shalarini tonggacha duo qilib chiqqanlari ko‘z oldingizga keladi. Ochlik, yupunlik, ayrliliqlar, erta hazon bo‘lgan muhabbat alamlari, judolik, qarg‘ish, yig‘i, g‘azab, hamma-hammasi romanda nihoyatda ishonarli tasvirlangan. Shu o‘rinda ijodkorning mashhur jumlasini aytmoqchiman “Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o‘qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o‘qib bo‘lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to‘lg‘onib chiqsa. Oradan yillar o‘tib asarni qo‘liga qayta olganida tag‘in hayajonlansa, yangi ma’nolar topsa. Eng katta orzuyim shu... ” deb yozadi sevimli adibimiz O‘tkir Hoshimov.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Hoshimov O‘. “Ikki eshik orasi” Toshkent 2013.
2. Hoshimov O‘. “Sakkizinch mo‘jiza”. Toshkent 2009.
3. Boltaboyev H. El sevgan adib. Toshkent 2011.
4. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem " Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
5. Sabirdinov, A. . (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
6. Guzalkhan, M. (2020). The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11).
7. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции* 15. Abdurashidovich, K. A. (2018). Motivation and National Character of

¹⁹ Said Ahmad “Ijod va jasorat” Toshkent 2000.

- Foolishness in Uzbek Literature. *ANGLISTICUM. Journal of the Association Institute for English Language and American Studies*, 7(4), 47-51.
8. Qayumov, A. (2018). Creating of a national character through means of literature. *Theoretical & Applied Science*, (1), 235-240.
9. Kayumov, A. A., & Isakova, J. B. (2022). DESCRIPTION OF A CHILD'S IMAGE IN UZBEK LITERATURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 115-122.
10. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.
11. Jo'rayev, H., & Anvarova, D. (2022). Investitsiya, investitsion muhit, jozibadorlik, investorlar huquqi, Investitsiya kodeksi, investitsion ombdusman, moliyalashtirish manbalari, to 'g 'ridan-to 'g 'ri investitsiyalar, mahalliy investitsiya. RESEARCH AND EDUCATION, 1(2), 329-332.
12. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1318-1322
13. Jo'rayev, H. A., & qizi Maxamadjonova, S. R. (2022). SHEKSPIR TRAGEDIYALARIDA AFORIZMLAR. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(7), 452-454.
14. Dehqonova, Maxsuma, & Qosimov, Iqboljon (2022). OYBEK DOSTONLARIDA MAVZULAR XILMA-XILLIGI VA OBRAZLAR TASVIRI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 317-322.
15. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. Theoretical & Applied Science, (2), 13-17